

ERKIN A'ZAM IJODIGA NAZAR**Ubaydullayeva Jamila Xurramovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi,

Ko'charova Dildora Karim qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Maqolada Erkin A'zamning adabiyotga kirib kelgan davridan to hozirgi kunga qadar bo'lgan ijodiy faoliyati tahlil etildi. Adabiy tanqidchilarning ijodkor haqidagi fikrlari o'rganildi va ulardan ayrimlarining fikrlaridan iqtiboslar keltirildi.

Kalit so'zlar: davr, tanqidchi, nosir, kinossenarist, publitsist, kinodramaturg, muharrir.

Surxon vohasi adabiyotining yorqin vakillaridan biri Erkin A'zamdur. O'zbek nosirlari orasida Erkin A'zam ijodi alohida ajralib turadi, adibning ijodiy faoliyati benihoya rang-barang. Chunki ijodkor o'zining nosir, dramaturg, publitsist, kinodramaturg, muharrir sifatidagi qirralarini allaqachon ko'rsatib ulgurgan. Adib adabiyot maydoniga dastlab hikoyalari bilan kirib keldi, ilk yozgan hikoyalari maktab davridayoq matbuot yuzini ko'rdi. Birinchi kitobi esa 1977-yilda "Chiroqlari o'chmagan kecha" nomi bilan chop bo'lgan hikoyalar to'plamidir. Ushbu to'plami bilanoq Erkin A'zam adabiyotchilar, munaqqidlar, kitobxonlar nazariga tushdi. Muallif shundan keyin "Otoyining tug'ilgan yili", "Javob", "Olam yam-yashil", "Bayramdan boshqa kunlar", "Pakananing oshiq ko'ngli", "Kechikayotgan odam", "Guli-guli", "Ertak bilan xayrlashuv", "Jannat o'zi qaydadir", "Shovqin" kabi hikoya, qissa, publisistik miniaturalar, kinoqissa, drama va roman kabi janrlardagi kitoblari, to'plamlari bilan adabiyot maydonidagi o'rmini mustahkamlab, kitobxonlar qalbidan joy olib kelmoqda. "Erkin A'zamning sho'rolar davrida yozilgan asarlaridan zamonasozlik, sovetparastlik, soxta qahramon yaratish, sxematizm unsurlarini topa olmaysiz. Adibning sho'ro davrida yaratilgan asarlari bugun ham eskirmagan. Uning asarlari mustahkam badiiyati, umuminsoniy g'oyalari bugun ham aziz va ardoqli. Erkin A'zam bir qator qissalarida "Shoirning to'yi", "Chapaklar va chalpaklar mamlakati", "Pakananing oshiq ko'ngli", "Guli-guli", "Zabarjad", "Farishta", "Suv yoqalab", "Shovqin" da yangicha badiiy shartlilik vositalaridan bag'oyat mohirlik bilan foydalanadi. Xususan bu qahramonlarga ism tanlashdan tortib, voqealarni bayon etish, chapani, qaysar, o'jar xarakterli kishilar obrazini bosh qahramon sifatida yaratishda ko'rinadi"¹.

¹ Erkin A'zam badiiy olami: Ilmiy maqolalar va suhbatlar to'plami. –T.: Turon zamin ziyo, 2014. 6- b.

So'nggi yillarda Erkin A'zam ijodini o'rganishqa e'tibor kuchaydi. Adib ilk ijod namunalari bilanoq ilmiy va adabiy jamoatchilik e'tiborini qozongan. Uning ilk ijodiga U.Normatov, N.Xudoyberganov, N.Shukurov, O.Tog'ayev, N.Vladimirova, R.Otayev, H.Boltaboyev, I.Hasanovlar munosabat bildirganlar. Ayniqsa, mustaqillik yillariga kelib, adib ijodiga bo'lgan qiziqish tobora ortib bordi. Xususan, A.Rasulov, S.To'laganova, M.Qo'chqorova, M.Sheraliyeva, F.Rajabova S.Qurbonovlarning tadqiqotlarini alohida tilga olib o'tish lozim. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Obidjon Shofiyev E.A'zamning nasri badiiyati, jumladan, kinoya va obraz masalalarini monografik planda maxsus tadbiq qilib PhD dissertatsiyasini yoqlagan, monografiya nashr etgan².

Adibning bir qator asarlari chet tillariga tarjima qilingan. "Mir v svetax" kitobi rus tiliga chop etilgan. 1991-yilda hamualliflikdagi "Shayxlar va jononlar" kitobi chex tilida nashr etilgan. 2015-yilda Erkin A'zamning ikki qissa va ikki hikoyasini o'z ichiga olgan va "Alvido, ertaklar" nomi bilan "Farevell to Fairy Tales" ingliz va "Adieu aux contes de fées" fransuz tillariga tarjima qilinib nashr etildi. Kitob ingliz tiliga shoir va tarjimon A'zam Obid, fransuz tiliga Shoazim Minovarov va Olima Nabiyevalar tomonidan o'girilgan.

Qolaversa, 2016-yilda O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zamning "Buyuk osiy Shayx San'on vorislari" ("Heirs to the Great Sinner Sheikh San'on") kitobi Buyuk Britaniyada ingliz tilida nashr etildi va London shahrida bo'lib o'tgan Yevroosiyo ijodiy gildiyasi muassisligidagi Open Eurasian Literature Festival & Book Forum – V Xalqaro adabiyot festivali doirasida taqdimoti bo'lib o'tdi. Ushbu kitob Londonning "Hertfordshire Press" nashriyoti tomonidan chop etilgan bo'lib, to'plamga adibning besh asari – "Shovqin" romani, "Guli-guli", "Pakananing oshiq ko'ngli" qissalari, "Yozuvchining bog'i" va "Musofirning qizini it qopdi" hikoyalari kiritilgan. Kitobga muharrirlik qilgan va kirish so'zi yozgan Kerol Yermakova kitob haqida shunday fikr yuritadi: "Adabiy faoliyatim mobaynida postsovet mamlakatlari adabiyotiga mansub ko'plab kitoblarga muharrirlik qilganman. Shu hisobda Erkin A'zamning kitobi elliginchi ishim. Garchi kitobda shu nomdagi asar bo'lmasa-da, uning butun mundariyasi o'sha mashhur Shayx San'onning e'tiqodiy falsafasiga uyg'unligini ilg'ash mumkin. Adib asarlarini mutolaa qilib, bugungi Markaziy Osiyoning yurak urishini eshitgandek bo'lamiz"³.

Erkin A'zam ijodi mavzu mundarijasining keng qamrovli ekani hamda turfa janrlarga boy ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Adib ijodida nasrning hikoya, qissa, kinoqissa, roman, kabi janrlari uchraydi. Ayniqsa ijodkor qissa va kinoqissa janrida sermahsul, tahsinga sazovor asarlar yaratgan. Adib kinoqissalarining deyarli barchasi ekranlashtirilgan, ikkinchi umrini yashashda davom etmoqda. Shular orasida xalqaro va milli kinomukofotlarga erishganlari ham talaygina. "Uning ssenariysi asosida tasvirga olingan "Chantrimore" (1990), "Piyoda" (1996) milliy kino san'atimizda yangilik bo'ldi. Navbatdagi "Dilxiroj" (2001) filmi xalqaro

² Шофиев О. Эркин Аъзам насри бадийати (киноя ва образ). Монография. – Т.:2019. –176 б.

³ Bu haqda qarang: "Жахон адабиёти", 2016 йил, №12, 129-бет.

miqyosda e'tibor qozondi. Germaniya va Fransiya televideniyelari orqali namoyish etildi. Nusxasi Fukuoko (Yaponiya) kinomuzeyida saqlanadi; "Erkak" (2004) nomli filmi "Kinoshok" xalqaro kinofestivalida "Eng yaxshi ssenariy" nominatsiyasi bo'yicha g'olib deb topildi, Vezul (Fransiya) xalqaro kinofestivalida Bosh sovringa (Gran-pri) sazovor bo'ldi; "Zabarjad" (2007) – "Moskovskaya premyera" va MDH anjumanlarida maxsus diplom bilan taqdirlandi, O'zbekistondagi kinofestivalda "Eng yaxshi aktrisa" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi; "Suv yoqalab" (2008) – "Zolotoy Vityaz" xalqaro kinoforumida (Moskva) "Serebryanni'y Vityaz" sovriniga sazovor bo'lib, Nyu-York shahrida o'tkazilgan (AQSH) Osiyo filmlari kinofestivalida "Eng yaxshi aktyor" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi; "Parizod" (2012) – "Kinoshok" xalqaro kinofestivalida Bosh sovringa sazovor bo'ldi. "Jannat qaydadir" (2008), "Qarzdor" (2010) nomli filmlari ham respublikamiz kinoteatrlarida muvaffaqiyatli namoyish etildi"⁴. Bundan tashqari muallif dramaturgiyada ham bir qancha asarlari bilan shuhrat qozongan. "Jannat o'zi qaydadir", "Shajara", "Farrosh kampirning tushi", "Xonadon egasi", "Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi" nomli pyesalari respublikamiz teatrlarida muvaffaqiyatli sahnalashtirildi. Erkin A'zam publisistikada ham xilma-xil janrlarda asarlar yaratgan. Masalan, suhbat, portret, adabiy qaydlar, publitsistik minyaturalar deya nom olgan janrlar ham E.A'zamning publisistik ijodida uchraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Erkin A'zam badiiy olami: Ilmiy maqolalar va suhbatlar to'plami. –T.: Turon zamin ziyo, 2014. –304 b.
2. "Жаҳон адабиёти", 2016 йил, №12, 129-б.
3. Karimov N. va boshqalar «XX asr o'zbek adabiyoti tarixi» –T.: 1999. –544 b.
4. Maqsadqulov X. Termiz oqshomi gazetasi 2008-yil 10-son.
5. Normatov U. Ijod sehri. –T.: "Sharq", 2007. –352 b.
6. Отаев Р. Дилрабо қўшиқлар айтилаверсин // Шарқ юлдузи. – 1984. – №2. – Б. 162-163.
7. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Navoiy universiteti, 2018. – 480 b.

⁴ <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/erkin-azam-1950/>